




Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

22 iyun, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (20 oktabr 2025 yildan 22 iyun 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,179% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 6,191% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,393% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarilib va 9,419% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,05% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,024% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,256% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,171% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,268% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,272% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,69% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich pasayib— 3,63% darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,33% (3 oylik) va 2,622% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,639% (6 oylik) va 2,417% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 756,0 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 32,0 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 979 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib 12 058 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya o,89% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi



22.06.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Octobank* da qayd etilgan – 12 070 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 090 – 12 135 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Aloqa bank*da qayd etilgan – 12 070 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 12 050 – 12 000 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)




USD/RUB kursi o'sish tendensiyasini saqlab qolmoqda

USD-RUB dinamikasi




RUB/CNY kursi barqarorligini saqlab qolmoqda

RUB-YUAN dinamikasi



EUR/USD bosim ostida qolmoqda, kurs pasaymoqda


EUR-USD dinamikasi




2026-yil 15–19-iyun kunlari oralig'ida EUR/USD valyuta juftligi kursi 1,1622 dan 1,1480 gacha pasaydi. Davr boshida mahalliy maksimumga erishilganidan so'ng yevro AQSH dollariga nisbatan izchil ravishda o'z pozitsiyalarini yo'qota boshladi. Umumiy pasayish 0,0142 punktini yoki taxminan 1,2 foizni tashkil etdi. Bu holat AQSH valyutasiga bo'lgan talabning ortib borayotgani va yevroning nisbatan zaiflashayotganidan dalolat beradi. Texnik manzara qisqa muddatli istiqbolda pasayish impulsi saqlanib qolayotganini ko'rsatmoqda. Yevroni qo'llab-quvvatlovchi muhim omillar yuzaga kelmagan taqdirda, EUR/USD juftligiga bo'lgan bosim yaqin savdo sessiyalarida ham davom etishi mumkin.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Oltin narxlar pasaydi



2026-yil 15–19-iyun kunlari oralig'ida oltin narxi 4305,8 AQSH dollaridan 4160,0 AQSH dollarigacha pasayib, qariyb 3,4 foiz yo'qotdi. 16-iyun kuni 4330,1 AQSH dollari darajasidagi mahalliy maksimumga erishilgandan so'ng bozor korreksiya bosqichiga o'tdi va bu jarayon davr oxirigacha davom etdi. Kotirovkalarning pasayishi investorlar tomonidan avvalgi o'sishdan keyin foydani qayd etish holatlari kuchayganini ko'rsatadi. Narxlarning pasayishiga qaramay, oltin jahon bozorlarida saqlanib qolayotgan noaniqlik sharoitida himoya aktiv sifatidagi jozibadorligini saqlab qolmoqda. Kelgusidagi dinamika investitsion talab darajasi hamda moliyaviy bozor ishtirokchilarining umumiy kayfiyatiga bog'liq bo'ladi.

Korreksiyadan so'ng qisman tiklanish



2026-yil 15–19-iyun kunlari oralig'ida Brent markali neft narxi bir barrel uchun 83,17 AQSH dollaridan 80,57 AQSH dollarigacha pasayib, qariyb 3,1 foiz yo'qotdi. Asosiy pasayish 16-iyun kuni kuzatildi, bunda kotirovkalar bir barrel uchun 78,96 AQSH dollarigacha tushdi. Keyingi kunlarda bozor bosqichma-bosqich tiklanishni namoyish etdi, natijada narx yana bir barrel uchun 80 AQSH dollaridan yuqori darajaga qaytdi. Davrning ikkinchi yarmida ijobiy dinamika kuzatilganiga qaramay, Brent haftani boshlang'ich ko'rsatkichlardan past darajada yakunladi. Bu esa bozor ishtirokchilari orasida ehtiyotkorlik saqlanib qolayotganini hamda savdolardagi o'zgaruvchanlik yuqori darajada ekanini ko'rsatadi.

TTF gaz narxi pasaydi



2026-yil 15–19-iyun kunlari oralig'ida TTF gaz narxi bir megavatt-soat uchun 49,2 AQSH dollaridan 47,9 AQSH dollarigacha pasayib, qariyb 2,6 foiz yo'qotdi. Mahalliy maksimumga erishilgandan so'ng bozor korreksiya bosqichiga o'tdi va 18-iyun kuni kotirovkalar bir megavatt-soat uchun 46,3 AQSH dollari darajasidagi eng past nuqtaga tushdi. Keyingi kuni narxlarning qisman tiklanishi kuzatildi, bu esa pastroq darajalarda xaridorlar faolligi saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Pasayishga qaramay, gaz narxlari tarixiy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaganda nisbatan yuqori darajada qolmoqda. Kelgusidagi dinamika Yevropa gaz bozorida talab va taklif muvozanatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Yangiliklar

Intesa Sanpaolo yangi “ko‘rinmas to‘lovlar” tizimini ishga tushirdi. Ushbu texnologiya xaridlar uchun to‘lovni bank kartasi yoki mobil telefondan foydalanmasdan, yuzni aniqlash (biometrik identifikatsiya) orqali amalga oshirish imkonini beradi.



Akbank sun‘iy intellekt texnologiyalariga asoslangan ilk to‘liq raqamli ofisini ochdi. Ushbu filialda mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlari an‘anaviy bank xodimlari ishtirokisiz amalga oshiriladi.



Santander Yevropa davlatlari o‘rtasida yangi xalqaro pul o‘tkazmalari xizmatini ishga tushirganini ma‘lum qildi. Mazkur tizim foydalanuvchilarga mablag‘larni deyarli komissiyasiz va bir necha soniya ichida yuborish imkonini beradi.



ING Bank Mastercard kompaniyasi bilan hamkorlikda yanada tezkor va xavfsiz onlayn-operatsiyalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan yangi sun‘iy intellekt (AI) to‘lov tizimini sinovdan o‘tkazdi.

